

SANOAT MULKI OBYEKTLARI TASNIFI VA FUQAROLIK-HUQUQIY MAQOMI

Boboto'xtayev Sohibjon Abdusalim o'g'li
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi,
Ommaviy huquq fakulteti tyutori
abdusalimovich95@gmail.com
+998977410772

Annotatsiya: Bugungi kunda dunyo bo'ylab fan-texnika taraqqiyotining rivojlanishi, insonning intellektual faoliyatining ahamiyatini yanada oshirib, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda katta ta'sir ko'rsatmoqda. Postindustrial jamiyatlarda bilimlar va ixtiolar asosiy harakatlantiruvchi kuchga aylanmoqda. Ushbu maqolada intellektual mulk, xususan, sanoat mulki obyektlari va ularning huquqiy maqomi haqida so'z yuritiladi. Ixtiolar, foydali modellar, sanoat namunalari va boshqa sanoat mulk turlari kabi obyektlarning huquqiy himoyasi, ularning patentlanishi, qo'llanishi va xalqaro amaliyotdagi o'zgarishlar tahlil qilinadi. Maqolada, shuningdek, sanoat mulkini himoya qilishning muhimligi, unga beriladigan huquqlar va huquqiy nizolarni hal qilish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Intellektual mulk, sanoat mulki, ixtiro, foydali model, sanoat namunalari, patent, huquqiy himoya, innovatsiya, qonunchilik, xalqaro amaliyot, intellektual mulk obyektlari.

КЛАССИФИКАЦИЯ И ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОЙ СТАТУС ОБЪЕКТОВ ПРОМЫШЛЕННОЙ СОБСТВЕННОСТИ

Боботухтаев Сохиджон Абдусалим
Ташкентский государственный юридический
университет
независимый исследователь,
Преподаватель факультета публичного права
abdusalimovich95@gmail.com
+998977410772

Аннотация: Сегодня развитие научно-технического прогресса во всем мире еще больше повышает значимость интеллектуальной деятельности человека и оказывает существенное влияние на социально-экономические сферы. В постиндустриальном обществе знания и изобретения становятся главной движущей силой. В статье рассматривается интеллектуальная собственность, в частности объекты промышленной собственности, и их

правовой статус. Анализируется правовая охрана таких объектов, как изобретения, полезные модели, промышленные образцы и другие виды промышленной собственности, их патентование, применение и изменения в международной практике. В статье также подчеркивается важность защиты промышленной собственности, предоставленных на нее прав и разрешения правовых споров.

Ключевые слова: Интеллектуальная собственность, промышленная собственность, изобретение, полезная модель, промышленные образцы, патент, правовая охрана, инновация, законодательство, международная практика, объекты интеллектуальной собственности.

CLASSIFICATION AND CIVIL-LEGAL STATUS OF INDUSTRIAL PROPERTY OBJECTS

Bobotoktayev Sohibjon Abdusalim

Tashkent State Law University

*independent researcher,
tutor of the Faculty of Public Law*

abdusalimovich95@gmail.com

+998977410772

Annotation: Today, the development of scientific and technological progress around the world is further increasing the importance of human intellectual activity and has a significant impact on socio-economic spheres. In post-industrial societies, knowledge and inventions are becoming the main driving force. This article discusses intellectual property, in particular, objects of industrial property and their legal status. The legal protection of objects such as inventions, utility models, industrial designs and other types of industrial property, their patenting, application and changes in international practice are analyzed. The article also covers the importance of protecting industrial property, the rights granted to it and the resolution of legal disputes.

Keywords: Intellectual property, industrial property, invention, utility model, industrial designs, patent, legal protection, innovation, legislation, international practice, objects of intellectual property.

Bugungi kunda dunyoda fan-texnika taraqqiyotining rivojlanishi natijasida insonning intellektual faoliyati turli ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Xususan, dunyoning ko‘plab mamlakatlari postindustrial davrga kirib keldi. Bunday jamiyatda bilimlar, g‘oyalar, ixtiolar, axborotlar asosiy harakatlantiruvchi kuchga aylanadi. Shuningdek, intellektual mult

obyektlari, xususan sanoat mulki tadbirkorlik va ijtimoiy tuzumimizning deyarli barcha jabhalariga faol va muntazam kirib kelayotganligi boisdan, usiz zamonaviy va shiddat bilan rivojlanib borayotgan dunyoni tasavvur etib bo‘lmaydi. Sanoat mulki obyektlari zamonaviy dunyoni rivojlanish tendensiyalarini belgilab beruvchi kuchlardan biriga aylandi.

Intellektual mulk bir mucha murakkab, mohiyatan turli soha bilimlarini o‘zida mujassam etadi. Uni tartibga soluvchi qonunlar birmuncha chalkash va murakkab harakter kasb etib, ushbu soha tushunish va talqin qilish qiyin tuyuladi. Shunday bo‘lsada, intellektual mulk zamonaviy jamiyatning muhim tarkibiy qismidan biri hisoblanadi. Intellektual mulk o‘z mohiyatiga ko‘ra ulkan shu jumladan, aviakosmik, arxitektura, farmasevtika, media-biznes va dam olish industriyasini harakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Shu boisdan kontrafaksiya, savdo, eksport va import, raqobat masalalari ijodkorlik va innovatsiya sohasidagi iqtisodiy, siyosiy va huquqiy nizolarda markaziy o‘rinni egallaydi[1].

Sanoat mulki obyektlari tasnifi va fuqarolik-huquqiy maqomi, bir necha sanoat turlariga bo‘lingan sanoat mulki obyektlarini va ularning fuqarolik-huquqiy maqomini ta’minlashga oid qonunlar va tartibotlardan iborat bo‘lgan yuridik vaqtincha hujjatdir. Bu hujjat, sanoat korxonalarini, zavodlarini, fabrikalarni va boshqa sanoat mulki obyektlarini boshqarishda kerak bo‘lgan qoida-vaqtini belgilaydi. Fuqarolik-huquqiy maqomi, sanoat mulki obyektlarining egasi yoki egasi tomonidan o‘zlashtirilgan mulklarni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan huquqiy asoslardan iboratdir.

1883-yilda qabul qilingan Sanoat mulki obyektlarini muhofaza qilish to‘g‘risidagi Parij konvensiyasida sanoat mulki obyektlari keng ma’noda talqin etilib, uning obyektlari bo‘lib quyidagilar keltirilgan: 1) ixtiolar; 2) foydali modellar; 3) sanoat namunalari; 4) tovar belgilari; 5) xizmat ko‘rsatish belgilari; 6) firma nomi; 7) geografik nomlar; 8) Tovar kelib chiqqan joy nomi; 9) g‘irrom taqobatni oldini olish.

Parij konvensiyasidan farqli ularoq “Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi qonunida sanoat mulki obyektlari deb - ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalarini o‘z ichiga olishi e’tirof etilgan. Yuqoridagi Parij konvensiyasida keltirilgan sanoat mulki obyektlarining qolgan qismi ya’ni, tovar belgilari; xizmat ko‘rsatish belgilari; firma nomi; geografik nomlar; tovar kelib chiqqan joy nomi; g‘irrom taqobatni oldini olish bizning qonunchiligidan intellektual mulkning alohida obyektlari sifatida alohida qabul qilingan qonunchilik normalari orqali tartibga solingan. Xususan, “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida”gi qonun, “Firma nomlari to‘g‘risida”gi qonun, “Geografik ko‘rsatkichlar to‘g‘risida”gi qonunlar shular jumlasidan hisoblanadi. Quyida ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari tasnifiga birma bir to‘xtalib o‘tiladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi qonuniga binoan, mahsulot yoki usulga tegishli har qanday sohadagi texnik yechim ixtiro sifatida e’tirof etiladi. Ixtiro sifatida, masalan, usullar, qurilmalar, moddalar, mikroorganizmlar shtammlari, o‘simpliklar va hayvonlar hujayralarining turlari tan olinadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Milliy entsiklopediyasida ixtiroga xalq xo‘jaligining turli sohalarida, ijtimoiy-madaniy qurilish sohalarida ijobiy samara beradigan, o‘ziga xos texnikaviy yechimga ega bo‘lgan yangilik, deb ta’rif berilgan. Tor ma’noda - davlat tomonidan tan olinadigan va tegishli qonun bilan muhofaza qilinadigan yangi texnikaviy yechim, deb qabul qilinishi mumkin [2]. Ixtiro – bu yangilik, amaliy qo‘llash, iqtisodiy faoliyat uchun foydali bo‘lgan texnik yechim. Ixtiro sifatida tan olinishi uchun ushbu yechim ixtirochilik darajasiga ham ega bo‘lishi kerak, ya’ni mutaxassislarning hozirgi bilim darajasidan kelib chiqqan holda hech kimga ma’lum bo‘lmagligi kerak.

Hozirgi vaqtida ixtiro obyektlari sifatida quyidagilarni e’tirof etish mumkin: qurilma, usul, modda, mikroorganizm shtammi, o‘simplik va hayvonlarning hujayra madaniyati, shuningdek, ilgari ma’lum bo‘lgan qurilma, usulning yangi qo‘llanilishi, shtamm [3]. Qisqa qilib aytganda, Ixtiro – bu xalq xo‘jaligining turli sohalarida, ijtimoiy-madaniy, qurilish va mudofaa sohalarida ijobiy samara beradigan, o‘ziga xos texnikaviy yechimga ega bo‘lgan yangilik hisoblanadi.

Intellektual mulkning asosiy hujjatlaridan biri ixtiroga beriladigan paten bo‘lib, mazkur hujjat intellektual mulk huquqlarining asosiy mohiyatini to‘liq holda o‘zida aks ettiradi hamda davlat va jamiyatning industrial rivojlanishida yetakchi rolni o‘ynaydi.

Muhofaza qilishning patent shakli mazmun-mohiyati shundan iboratki, ixtiro, foydali model yoki sanoat namunasining muallifi yoxud u vakil qilgan boshqa shaxs texnika yutug‘iga bo‘lgan mualliflikni va undan foydalanishga bo‘lgan huquqni mustahkamlash uchun vakolatli davlat organiga davlatning nufuzi bilan guvohlantirilgan muhofaza hujjati, ya’ni ixtiro, sanoat namunasi, foydali model uchun patent berishni so‘rab talabnomaga topshiradi. Patent, uni olgan shaxsning sanoat mulki obyektiga bo‘lgan mualliflik huquqini va undan foydalanishga bo‘lgan mutlaq huquqini tasdiqlaydi [4].

O‘zbekiston Respublikasining “Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi qonunning 6-moddasi quyidagilar ixtiro sifatida e’tirof etilmasligini belgilaydi:

- ilmiy nazariyalar va matematika usullari;
- tashkil etish va boshqarish usullari;
- shartli belgilar, jadvallar, qoidalar;
- aqliy operatsiyalarni bajarish qoidalari va usullari;
- elektron hisoblash mashinalari uchun algoritmlar va dasturlar;

- binolar, inshootlar, hududlarni rejalashtirish loyihalari va chizma tarhlari;
- estetika talablarini qanoatlantirishga yo‘naltirilgan, buyumlarning faqat tashqi ko‘rinishiga oid yechimlar;
- integral mikrosxemalarning topologiyalari;
- o‘simlik navlari va hayvon zotlari;
- jamoat manfaatlariga, insonparvarlik va axloq qoidalariga zid yechimlar.

Fikrimizcha, bu o‘rinda qonun tomonidan ixtiro sifatida e’tirof etilmaydigan obyektlar borasida ikkita muammo ko‘zga tashlanadi.

Birinchidan, ushbu ro‘yxatdagagi ayrim ob’ektlarga yaqin usullar ixtiro bilan chalkashtirib yuboradi. Masalan, biznes va boshqaruvni tashkil etish borasida bugungi kunda patentlar berilayotganligi hech kimga sir emas . Masalan, 2010 yilda AQShning Bilski ismli fuqarosi riskni himoya qilish uchun biznes usuli bo‘yicha patent olishni so‘rab murojaat qilgan. AQSh Oliy sudi bahsli da’volarni haqiqiy emas deb topdi, chunki ular patentga ega bo‘lmagan mavhum g‘oyaga - xedjlash xavfiga qaratilgan va faqat hal qilishdan keyingi faoliyat tokenini qo‘shtigan, ya’ni, kirish ma’lumotlarini o‘rnatish uchun ma’lum bo‘lgan tasodifiy tahlil usullaridan foydalanganligi qayd etilgan .

Ikkinchidan, bir qator ixtiro talabiga mos kelmaydigan obyektlar e’tibordan chetda qolib ketgan. Xususan, kashfiyat, faqatgina axborot taqdim etishi mumkin bo‘lgan yechimlar va boshqalar.

Yuqoridagi qonunning 6-moddasida ko‘rsatib o‘tilgan ixtiro hisoblanmaydigan obyektlar ixtiro obyektiga patent berish haqida talabnomasi berilgan hollarda qaysi obyektlar ixtiro hisoblanmasligini aniqlab berishga xizmat qiladi [5].

Foydali modelning tasnifi to‘g‘risida so‘z yuritganda Foydali model (yoki foydali modellar) — bu iqtisodiy yoki ijtimoiy tizimlarda resurslarni taqsimlash va qaror qabul qilish jarayonlarini optimallashtirish uchun ishlatiladigan matematik modellar hisoblanib, ular ko‘plab sohalarda, jumladan, iqtisodiyot, muhandislik, logistika, va boshqaruvda qo‘llaniladi. Foydali modelning tasnifi foydali modellarni tushunishda va ularni turli sohalarda qo‘llashda yordam beradi. Har bir model o‘zining xususiyatlari ko‘ra turli vaziyatlarda qo‘llanilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining “Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi qonunining 7-moddasiga ko‘ra, Agar foydali model sifatida ko‘rsatilgan obyekt yangi bo‘lsa va uni sanoatda qo‘llash mumkin bo‘lsa, u huquqiy muhofaza qilinadi.

Foydali modellar intellektual mulkning bir shakli bo‘lib, ularning huquqiy tasnifi mamlakatlar o‘rtasida farq qilishi mumkin. Biroq, ko‘pchilik yurisdiksialarda ushbu toifaga tegishli umumiylar mavjud bo‘lib, ular quyidagicha hisoblanadi:

Foydali modelning tasnifi. Foydali model - bu mahsulot bilan bog‘liq bo‘lgan, uning funksional xususiyatlarini yaxshilaydigan va yangi bo‘lgan texnik yechimdir.

Ixtiro uchun patentdan farqli o‘larоq, foydali model ko‘pincha yangilik darajasi va ixtirochilik bosqichiga ega bo‘lgan kamroq murakkab texnik yechimlarga ishora qiladi;

Foydali modelning asosiy xususiyatlari. Yangilik: Foydali model yangi bo‘lishi kerak. Bu shuni anglatadiki, ariza topshirishdan oldin yechim texnikaning oldingi darajasidan ma’lum bo‘lmasligi zarur. Amaliy qo‘llanilishi: Foydali model amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi va sanoatda qo‘llanilishi lozim. Ixtirochilik bosqichi: ixtiro patentidan farqli o‘larоq, foydali modelga qo‘yiladigan ixtiro bosqichi talablari unchalik qat’iy bo‘lmasligi mumkin.

Ro‘yxatga olish tartibi. Foydali modelni ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi odatda quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi: Arizani topshirish: Talabnoma patent idorasiga taqdim etiladi va unda foydali model tavsifi, chizmalar (agar kerak bo‘lsa), shuningdek talabnoma beruvchi to‘g‘risidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak. Rasmiy ekspertiza: Rasmiy talablarga muvofiqligini tekshirish (masalan, barcha kerakli hujjatlar mavjudligi).

Milliy qonunchiligidan farqli o‘larоq, ba’zi mamlakatlarda Mazmuniy ekspertiza ham o‘tkaziladi. Bir qator yurisdiksiyalar foydali modelning yangiligi va amaliy qo‘llanilishini tekshirishni o‘z ichiga olgan mazmuniy ekspertiza o‘tkazadi.

Xalqaro jihatlar. Xalqaro amaliyotda foydali modellar turli mamlakatlarda farq qilishi mumkin. Masalan: Yevropa Ittifoqida foydali modellar Yevropa patent tizimida mavjud emas, lekin Germaniya kabi alohida Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida foydali modellarni himoya qilish milliy tizimlari mavjud. AQShda "foydali model" atamasi ishlatilmaydi va shunga o‘xshash yechimlar ixtiro patentlari yoki dizayn patentlari bilan himoyalangan bo‘lishi mumkin. Foydali modellar turli sohalarda texnologik takomillashtirish va innovatsiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan, unchalik murakkab bo‘lmagan innovatsion yechimlar uchun samarali xavfsizlik vositasini taqdim etadi.

Sanoat mulkining fuqarolik-huquqiy maqomi, asosan, uning huquqiy himoyasini ta’minalash va mulk huquqlarini belgilash bilan bog‘liq. Sanoat mulklari, boshqa intellektual mulk obyektlari kabi, huquqiy himoya ostida bo‘ladi.

Sanoat mulkining fuqarolik-huquqiy maqomini huquqiy himoya belgilab beradi. Huquqiy humoya dastlab sanoat mulkining ro‘yxatdan o‘tishi bilan boshlanadi. Buning uchun maxsus patent idoralariga murojaat qilish zarur bo‘ladi. Sanoat mulkining huquqiy himoyasi odatda 5-25 yilgacha bo‘ladi. Bu muddat davomida, sanoat mulki egasi undan boshqa shaxslarning ruxsatsiz foydalananishiga qarshi huquqga ega bo‘ladi.

Agar boshqa shaxs yoki tashkilot sanoat mulkni obyektining huquqiy himoyasini buzsa, ya’ni uning ruxsatisiz foydalansa mulkdor shaxs sud orqali o‘z huquqlarini himoya qilishi mumkin.

Sanoat namunasining fuqarolik-huquqiy maqomi, asosan, uning estetik jihatlarini huquqiy himoya qilishga qaratilgan bo‘lib, bu turdagи namunalarga bo‘lgan

huquqiy aloqalar va qonunlar ko‘plab mamlakatlarda intellektual mulkni himoya qilishni maqsad qilgan. Sanoat namunasining tasnifi va huquqiy maqomi, dizaynerlarning ijodiy ishlarini himoya qilish va ularni bozorga chiqarishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, sanoat mulki obyektlarining fuqarolik huquqiy maqomi O‘zbekiston Respublikasida huquqiy himoyalangan va ularning huquqlari qonunlar bilan himoyalangan. Sanoat mulki obyektlari O‘zbekiston Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi va boshqa qonunlar tomonidan ta’minlangan. Sanoat mulki obyektlarining egalari o‘z fikrlarini ifoda etish, axborot olish va tarqatish, jamiyatda faol ishtirok etish va boshqa huquqlardan foydalanish huquqiga ega. Huquqiy maqomi davlat tomonidan himoyalangan va ularning huquqlari qonunlar bilan himoyalangan. Shu bilan birga, sanoat mulki obyektlari bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish hamda O‘zbekistonda ushbu yo‘nalishdagi tadqiqot ishlari hamda qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha ishlarni jadallashtirish zarur ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. A History of Intellectual Property in 50 Objects. «Cambridge University Press», 2019 г. WIPO MAGAZINE. August 2019 / No. 4. 39-48-b
2. Ixtiroga berilgan ta’rif. <https://ima.uz/uz/information/info/news/1483/>
3. Ixtiro obyektlariga nimalar kirishi haqida. <https://dic.academic.ru/dic.nsf/ruwiki/105182>
4. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga sharh: Ilmiy sharhlar. Т 3. /O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. — Toshkent: Baktria press, 2013. 413-b
5. Mexmonov Qambariddin Miradxamovich. Sanoat mulki obektlarining fuqarolik-huquqiy maqomi: nazariya va amaliyot. Yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent. 2014. 95-b.
6. Влияние международной патентной системы на развивающиеся страны: исследование, проведенное г-ном гетачью менгисте. Ассамблеи государств-членов ВОИС. Тридцать девятая серия заседаний Женева, 22 сентября – 1 октября 2003 г.
7. WIPO. PCT:вопросы и ответы. Апрель 2020г
8. Договор о патентной кооперации — реальный путь патентования за рубежом Г. Ф. Востриков, Т. В. Апарина